

## MAHSULOT TANNARXINI XISOBLASHNI AMALDA QO'LLANILAYOTGAN USULLARI TAHLILI

**Xonto'rayev Obbosxon Kamolxon o'g'li**

Namangan muhandislik texnologiya instituti

Buxgalteriya hisobi va audit kafedrasida assistenti

**Annotatsiya:** Mazkur maqola mahsulot tannarxini xisoblashni amalda qo'llanilayotgan usullari tahlili mavzusini ochib berishga bag'ishlangan. Shuningdek, ishlab chiqarilgan mahsulot tannarxining mohiyati va uning xuquqiy asoslari haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** Sanoat korxonalari, moliyaviy inqiroz, moliya-bank tizimi, mahsulot tannarxi, Amartizasiya xarajatlari, Moddiy xarajatlar, xarajatlar dinamikasi.

Mamlakatimizda ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik yangilash va diversifikatsiya qilish, inoatsion texnologiyalarni keng joriy etish ishlari keng kulamda amalga oshirilmoqda. Shu asnodan, mazkur subyektlar moliyaviy munosabatlarini bozor talablariga javob beradigan darajada takomillashtirish, mahsulot ishlab chiqarish tannarxini samarali kamaytirish orqali eksport salohiyati yuksaltirish korxonalarini kelgusida muvofiqiyatli rivojlanishini ta'minlaydi. Shu sababli, global moliyaviy inqiroz sharoitida moliya-bank tizimini qo'llab-quvvatlash, sanoat korxonalarida mahsulot ishlab chiqarish tannarxini kamaytirishda yuzaga keladigan muammolarni xal etish va ularning moliyaviy barqarorligini yanada oshirish eng dolzarb masalalardan biri bo'lib xisoblanadi.

Mahsulot tannarxi - shu mahsulotni ishlab chiqarish uchun ketgan barcha bevosita va bilvosita xarajatlarning qiymati ifodasidir. Mahsulot (ish, xizmat) tannarxi - mahsulot ishlab chiqarish jarayonida foydalaniladigan tabiiy resurslar, xom ashyo, materiallar, yoki, energiya, asosiy vositalar, Mehnat resurslari, va Boshqa xarajatlarning qiymati bahosi. Sanoat korxonalarida mahsulot tannarxi xisobi Vazirlar maxkamasining 1999 yil 5 fevraldagi mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarning tarkibi xamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida nizomga muvofiq amalga oshiriladi. Mahsulot tannarxi tarkibiga quyidagi xarajatlar kiritiladi[1]. Bu xarajatlar korxonada mahsulot ishlab chiqarishda bevosita qatnashib mahsulot tannarxini shakllantiradi:

- Moddiy xarajatlar;
- Mehnatga xak to'lash xarajatlari;
- Ijtimoiy sug'urtaga ajratmalar;
- Amartizasiya xarajatlari;
- Boshqa xarajatlar.

Moddiy xarajatlar - ishlab chiqarishning asosiy xarajatlardan biri bo'lib, mahsulot (ish, xizmat) larga qarab jami ishlab chiqarish xarajatlarning 60-80 % atrofida bo'lishi mumkin[2]. Moddiy xarajatlar o'z ichiga xom ashyo va materiallarga qilingan xarajatlarni o'z ichiga oladi. Xom ashyo va materiallarga qilingan xarajatlar deyilganda, mahsulot sotib olgandan to korxonaga olib kelgunga kadar barcha komission va vositachilik xarajatlar tushuniladi. Mahsulot tannarxi shakllanishida ta'sir etuvchi xarajatlardan biri ijtimoiy sug'urta fondiga ajratma xisoblanadi. Bu ajratma korxonada shakllanadigan ish xaqi fondiga nisbatan xisoblanadi. Korxonada qancha ish xaqi fondi shakllansa, shu summaga nisbatan 25 foiz ajratiladi. Bunda 25 % dan 24,8 % i davlat pensiya fondiga o'tkaziladi, 0,1 % i bandlik fondiga, kolgan 0,1 % i kasaba uyushmalari fondiga o'tkaziladi. Umuman olganda bu 25 %li ajratma

davlatning iqtisodiyotni tartibga solib turishda xamda davlat pensiya fondini shakllantirishda foydalaniladi. Ish xaqi fondi ishchilarga mehnat xaqi to'lash uchun shakllansada, lekin unga qo'shimcha tarzda korxonaning o'zi bu fondga nisbatan ijtimoiy sug'urta fondiga ajratma to'lashga majburdir. Shuning uchun amaliyotda korxonalar ishchilarga ish xaqi xisoblashda albatta bu ajratmani xam xisobga oladi[3]. Yuqorida keltirilgan xarajatlarning turkumlanishi, ta'kidlanganidek, korxonahabariyati tomonidan rejalashtirish, tahlil, qilish soliqlarni to'g'ri hisoblash va to'lanishi uchun ishlatiladi. Shuningdek, xarajatlarni nazorat qilish maqsadida ularni samarali sarflanishini, mahsulot ishlab chiqarish va realizsiya qilish hajmi oshirishini, uning sifatini oshirilishini ta'minlash uchun ishlatiladi. Shu bilan birga xarajatlar nazoratini to'g'ri va ustalik bilan olib borish uchun ularni ifodalovchi ko'rsatkichlarni bilish va ishlata olish zarur[4]. Ularga quyidagilar kiradi:

- ishlab chiqarish xarajatlari turlari buyicha summasi;
- xarajatlar dinamikasi;
- xarajatlar darajasi va ularning farqi;
- bazis davri va biznes reja ma'lumotlari bilan solishtirilishi natijasida xarajatlarning mutloq va nisbiy farqlari;

Ishlab chiqarish xarajatlari summasi korxonahab, bo'lim buyicha alohida mahsulot (ish, xizmat) turlarining aniq bir davri uchun ishlab chiqarish xarajatlarining puldagi o'zgarishini xarakterlaydi. Ular asosida, ishlab chiqarish xarajatlari hajmiga, bir necha yillik dinamikasiga va ularning o'zgarishi to'g'risidagi axborotlarga miqdoriy baho berish mumkin. Bu ko'rsatkich menedjerlarga xarajatlarni ular turlari buyicha va butunlay rejalashtirish, shuningdek, zarur bo'lgan tovar-material zahiralarni, mehnat va moliyaviy resurslarni sotib olish buyicha pul mablag'larini ajratish uchun kerakdir. Xarajatlar tarkibi ularning umumiy summasi tarkibidagi alohida xarajat turlarining ulushini aniqlash bilan birga xom ashyo va materiallar ishlatiladigan, avtomatlashtirilgan, mehnat va mexanizatsiya darajasi yuqori bo'lgan korxonalarining materialtalabligini va mehnat talabligini tahlil qilish uchun zarurdir. Xarajatlar tarkibining o'zgarishini urganish kelgusi davr xarajatlari tarkibini yaxshilash va ularning samaradorligini oshirish buyicha boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun asos bo'ladi.

Xarajatlar tarkibini aniqlash uchun ma'lumotlar moliyaviy hisobatning «Daromadlar va zararlar haqida hisobot» 2-shakl, «Buxgalteriya balansiga ilova» 5-shakllardan, shuningdek, «Ishlab chiqarish xarajatlari haqida xisobot» statistik hisobotdan olinadi. Xarajatlar darajasi bu tayyor, tovar yoki sotilgan mahsulot bir sumiga to'g'ri keadigan xarajatlardir. Bu xarajatlar samaradorligini, dinamikasini va ularning nisbiy farqini hisoblash uchun zarur bo'ladi. Xarajatlar darajasi ( $X_d$ ) asosiy faoliyat xarajatlarini ( $A_{fx}$ ) sotilgan mahsulot hajmi ( $M$ ) ga nisbati bilan aniqlanadi[5].

$$X_d = A_{fx} : M \cdot 100$$

Ishlab chiqarish xarajatlari darajasini hisoblash uchun ma'lumotlar 2 – shakl « Moliyaviy natijalar to'g'risida»gi hisobotdan olinadi. Xarajatlar dinamikasi xarajatlar summasi va darajasini utgan va bazis davriga nisbatan o'zgarishini xarakterlaydi. U mutloq va nisbiy farqlarda usish sur'atida kupayish tezligi kabi ko'rsatkichlar bilan aniqlanadi. Xarajatlar dinamikasini ifodalovchi ko'rsatkichlar tahlilchilar va auditorlarga to'g'ri xulosa chiqarib, tegishli tavsiyalarni ishlab chiqish imkonini beradi. Menejerlar uchun xarajatlarni kamaytirish va tejash buyicha boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Xarajatlar dinamikasini urganishda daromadlar umumiy summasinisof tushumni va xarajatlarning umumiy miqdori o'zgarish su'ratini solishtirish zarur[6]. Daromadlar usish sur'atining xarajatlarga nisbatan balandligi foyda va rentabellikni ortishini ko'rsatadi, ya'ni bu korxonahabariyati samaradorligining oshganligidan dalolat beradi.

Yuqoridagilarni xulosa qilgan holda shuni ta'kidlash joizki, korxonaning ishlab chiqarish xarajatlari tahlili va baholanishi Korxonaning ishlab chiqarish xarajatlarini hisoblash usuli va mahsulot

tannarxini kalkulyasiya qilish bilan bog'liqdir. Mahsulot birligiga qilingan material, mehnat va moliyaviy xarajatlarning umumiy summasi mahsulot tannarxi deyiladi. Tannarxning namunaviy kalkulyasiyasi maxsus buyurtma, bir to'da tovar va shartnoma tannarxi kalkulyasiyasini ifodalaydi. Tannarxni namunaviy kalkulyasiya usuli kompaniya iste'molchidan kalkulyasiya qilinayotgan mahsulotning bir guruh yoki bir birligini ishlab chiqarish buyurtmasini olganda qo'llaniladi, masalan, qurilishda, tipografiyalarda, aviasozlikda, mebel fabrikalarida mashinasozlikda, remont ishlarini amalga oshirishda, auditorlik yoki konsultasiya xizmatlarini ko'rsatishda va boshqalar.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Vaxobov A, Malikov T. Moliya: umumnazariy masalalar. T.: "IQTISOD MOLIYA" 2008. 354 b.
2. Malikov T.S., Xaydarov N.X- Moliya: umumdavlat moliyasi. - T.: "IQTISODMOLIYA", 2009. 456
3. Khimmataliyev, D., Yavminova, N., Sobirjonova, N., & Toshkentova, H. (2016). Electronic government: problems and solutions. Jurnal nauchnix i prikladnix issledovaniy, (12), 175-176.
4. Abdigapparovna, E. N. (2024). FUNDAMENTALS OF MANAGEMENT ACCOUNTING. INTERNATIONAL JOURNAL OF EUROPEAN RESEARCH OUTPUT, 3(1), 109-112.
5. Akbarov, G., & Aliboyev, J. (2022). Development of Public-Private Partnership Relations in Uzbekistan. Евразийский журнал права, финансов и прикладных наук, 2(13), 125-131. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7461208>.
6. Ne'madjonovich, A. G. (2023). Public-Private Partnerships: Experiences of Foreign Countries. Web of Synergy: International Interdisciplinary Research Journal, 2(3), 222-224. <https://univerpubl.com/index.php/synergy/article/view/691>.
7. Боймирзаев, З. М. (2023). Кичик бизнес корхоналарининг экспорт салохиятининг ривожлантириш йўналишлари. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIIY TADQIQOTLAR JURNALI, 2(20), 343-349.
8. Yuldashalievich, M. B., Ibragimovich, I. R., Sativoldiyevich, T. U., & Khafizovich, K. A. (2020). A VISION OF INNOVATION MANAGEMENT. American Journal of Economics and Business Management, 3(5), 281-288.
9. Ulugbek, T., Kizi, I. R., & Abror, N. (2019). Auditing of financial reporting in the republic of Uzbekistan. International Journal of Management, IT and Engineering, 9(7), 182-194.
10. Каримова, М. Б. (2023). УЧЕТ АРЕНДЫ ОСНОВНЫХ СРЕДСТВ В СООТВЕТСТВИИ С МСФО. Miasto Przyszłości, 41, 27-32.
11. Karimova, M. B. (2023). MAMLAKATIMIZNI MODERNIZATSIYA QILISH SHAROITIDA SANOAT KORXONALARIDA MOLIYAVIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHNING ASOSIY YO'NALISHLARI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(6), 365-377.
12. Каримова, М. (2022). ХЎЖАЛИК ЮРИТУВЧИ СУБЪЕКТЛАРНИНГ ФАОЛИЯТИ САМАРАДОРЛИГИНИ АНИҚЛАШДА АСОСИЙ ВОСИТАЛАР РЕНТАБЕЛЛИГИ ТАҲЛИЛИ. Евразийский журнал права, финансов и прикладных наук, 2(13), 83-89.
13. Mashrabboyevich, B. Z. (2023). Development of the Export Capacity of Small Business Enterprises in Uzbekistan. Web of Synergy: International Interdisciplinary Research Journal, 2(3), 225-228.
14. Abdusalomovich, I. S. (2023). LEASING RELATIONS IN SMALL BUSINESS ENTITIES. Multidisciplinary and Multidimensional Journal, 2(4), 275-278.
15. Kadyrova, K. T., & Mirzaxhalikov, B. B. (2023). The Significance of Financial and Economic Stability of Small Business Entities and the Main Directions of its Ensuring. Web of Synergy: International Interdisciplinary Research Journal, 2(1), 338-344.
16. Akhmedov, A. (2021). ISSUES OF IMPROVING THE SERVICE SERVICE IN SMALL BUSINESS ENTITIES. In ИННОВАЦИОННЫЕ ПОДХОДЫ В СОВРЕМЕННОЙ НАУКЕ (pp. 227-230).

17. Akbarov , G. N. (2024). THE CONCEPTUAL FRAMEWORK OF PUBLIC-PRIVATE PARTNERSHIP IN UZBEKISTAN. Educational Research in Universal Sciences, 3(4 SPECIAL), 374–378. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10674709>.
18. Dodhomirzaevich, S. S., & Nemadjonovich, A. G. (2024). PUBLIC-PRIVATE PARTNERSHIP CONCEPTUAL BASIS. JOURNAL OF ECONOMY, TOURISM AND SERVICE, 3(2), 29-34. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10674732>
19. Неъматджонович, А. Ғ. (2022). ДАВЛАТ-ХУСУСИЙ ШЕРИКЛИК: ЖАҲОН МАМЛАКАТЛАРИ ВА ЎЗБЕКИСТОН ТАЖРИБАСИ. BARQARORLIK VA YETAKSHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI, 2(12), 215-219. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10682028>
20. Акбаров, Ғ. (2023). ДАВЛАТ-ХУСУСИЙ ШЕРИКЛИҚДА ТОМОНЛАР ҲАМКОРЛИГИ. " Science Shine" International scientific journal, 1(1). <https://doi.org/10.5281/zenodo.7685022>
21. Akbarov, G., & Irkinjanova, M. (2022). ДАВЛАТ-ХУСУСИЙ ШЕРИКЛИК ЛОЙИҲАЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ. АНДИЖОН МАШИНАСОЗЛИК ИНСТИТУТИ МАШИНАСОЗЛИК ИЛМИЙ-ТЕХНИКА ЖУРНАЛИ, 6(6 (Special issue)), 612–618. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10682078>